


**QASHQADARYO VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2024- YIL YANVAR-MART
(DASTLABKI MA'LUMOT)**





Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra)


Bugungi kunda viloyatda 3 241 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 050 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 32,4 % i) Qarshi shahriga, 596 tasi (18,4 %) Kitob tumaniga, 532 tasi (16,4 %) Yakkabog' tumaniga, 453 tasi (14,0 %) Qarshi tumaniga va 440 tasi (13,6 %) G'uzor tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalarda sanoat korxonalarining ulushi

Jami yangi tashkil etilgan



Qarshi sh.	36
612	
Yakkabog' t.	24
282	
Qarshi t.	23
223	
Qamashi t.	17
168	
Ko'kdala t.	15
93	
Shahrisabiz sh.	15
272	
G'uzor t.	13
206	
Shahrisabiz t.	13
217	
Koson t.	12
155	
Nishon t.	10
85	
Kitob t.	8
382	
Chiroqchi t.	8
180	
Dehqonobod t.	5
74	
Mirishkor t.	5
90	
Kasbi t.	5
113	
Muborak t.	4
89	

● ● Faoliyat yuritayotgan





Yangi tashkil etilgan

Qashqadaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'mol mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7 335,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishning fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (11 735,4 ming so'm), G'uzor tumanida (4 771,5 ming so'm) hamda Qarshi shahrida (2 847,9 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 056,0 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.



*Viloyatda aholi jon boshiga sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi*

2,1 mln. so'm




ming. so'mda

o'sish sur'ati, % da




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 5 610,4 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 76,5 % ni tashkil etdi.




2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishdagi yuqori ulush Nishon tumani (26,7 %), G'uzor tumani (14,5 %), Qarshi shahri (11,5 %) Qarshi tumani (8,1 %) hamda Kasbi tumani (7,7 %) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Qarshi tumanida (109,2 %), Mirishkor tumanida (107,6 %) hamda Muborak (107,3 %) tumanida kuzatildi.




yanvar-mart oylarida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)


Propan va Butan




Neft



Tabiiy gaz



Gaz kondensati



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Propan va Butan, ming t.	30,0	33,0	3,0
Neft, ming t.	2,7	2,7	0
Tabiiy gaz, mln. kub.m	21,7	17,1	- 4,6
Gaz kondensati, ming t.	25,9	26,7	0,8

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida




Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 610,4 mlrd. so’zni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 76,5 % ni tashkil etdi.


Mirishkor t.	141,5
354,7	
Shahrisabz t.	115,1
127,7	
Qarshi t.	112,6
593,9	
Kasbi t.	111,6
566,5	
Kitob t.	110,6
348,0	
Koson t.	108,3
243,1	
Muborak t.	106,2
83,8	
G’uzor t.	102,1
1 029,2	
Shahrisabz sh.	101,8
112,6	
Chiroqchi t.	99,7
200,2	
Qarshi sh.	99,1
370,2	
Qamashi t.	97,4
189,8	
Ko’kdala t.	97,3
46,4	
Yakkbog’ t.	97,3
188,9	
Dehqonobod t.	93,2
222,0	
Nishon t.	68,3
933,4	

mlrd. so’mda


FHI, % da



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 20,6 % (17,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 22,7 % (5,7 %), quyi texnologiyali 56,3 % (42,6 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 0,5 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,04 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 165,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 31,4 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,3 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,2 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 31,4 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,9 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 56,8 ming tonna dizel yoqilg'isi (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 101,4), 14,4 ming tonna kalava ip (120,3 %), 460,3 ming litr aroq mahsulotlari (88,9 %) hamda 14,2 ming tonna yumshoq bug'doy va sepelta uni (94,4 %) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Paxta linti, ming t.	1,4	1,4	0
Aroq, ming litr.	517,8	460,3	- 57,5
Kalava ip, ming t.	13,2	14,4	1,2
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	15,0	14,2	- 0,8
Paxta tolasi, ming t.	22,5	26,8	4,3

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,04 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 165,8 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 3,1 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xom-ashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 113,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 382,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,2 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,0 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 751,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distirlangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 78,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 42,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 28,7 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,2 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 2 107,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 116,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 187,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,7 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 152,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.

2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 96,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 25,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 100,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 115,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	2 083,4	1 954,0	- 129,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	830,0	1 041,8	211,8

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlarda 133,3 % hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 100,5 % ga teng ekanligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	2 907,5	2 923,4	15,9
Suvga ishlov berish, suv quvurlari va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	26 449,3	20 708,0	- 5 741,3

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 743,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,8 % ni tashkil etdi. Oʻtgan yilning mos davrida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 22,2 % ni tashkil etgan.


yanvar-mart
mlrd.soʻmda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining
jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi



yanvar-mart
ulushi, % da



Koʻkdala t.	100,0
46,5	
Shahrisabz sh.	79,2
91,3	
Chiroqchi t.	69,9
144,1	
Mirishkor t.	67,0
237,9	
Shahrisabz t.	48,0
64,4	
Qamashi t.	44,5
85,1	
Muborak t.	44,0
85,5	
Yakkabogʻ t.	39,9
75,6	
Koson t.	35,6
98,7	
Qarshi sh.	34,9
294,7	
Kitob t.	26,0
97,3	
Kasbi t.	24,9
140,9	
Qarshi t.	21,7
140,5	
Dehqonobod t.	17,7
39,3	
Gʻuzor t.	5,0
52,9	
Nishon t.	2,6
49,1	

● mlrd. soʻmda

Ulushi, % da

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 36 ta loyiha bo'yicha 885,4 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 17,3 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 218 ta yangi ish o'rinlari yaratildi

